


## 2021- yilning yanvar-mart oylarida Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-mart oylarida Farg'ona viloyatida jami **1 289,8** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan **114,1 %**ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## 2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni **3 323** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **362** taga ko'paygan.



Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **114,3** %ga (jami qurilishdagi ulushi **55,6** %), fuqarolik obyektlarini qurish **113,6** %ga (jami qurilishdagi ulushi **10,8** %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **108,6** %ga (jami qurilishdagi ulushi **33,5** %) o'sishidir.




**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni (birlikda)**

		holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.04.2020- yil	01.04.2021- yil	
	<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>2961</b>	<b>3323</b>	<b>112,2</b>
	<i>shaharlar:</i>			
	<b>Farg'ona</b>	<b>790</b>	<b>891</b>	<b>112,8</b>
	<b>Qo'qon</b>	<b>312</b>	<b>329</b>	<b>105,4</b>
	<b>Quvasoy</b>	<b>104</b>	<b>115</b>	<b>110,6</b>
	<b>Marg'ilon</b>	<b>286</b>	<b>342</b>	<b>119,6</b>
	<i>tumanlar:</i>			
	<b>Oltiariq</b>	<b>91</b>	<b>114</b>	<b>125,3</b>
	<b>Qo'shtepa</b>	<b>95</b>	<b>102</b>	<b>107,4</b>
	<b>Bag'dod</b>	<b>157</b>	<b>158</b>	<b>100,6</b>
	<b>Buvayda</b>	<b>122</b>	<b>127</b>	<b>104,1</b>
	<b>Beshariq</b>	<b>74</b>	<b>92</b>	<b>124,3</b>
	<b>Quva</b>	<b>138</b>	<b>144</b>	<b>104,3</b>
	<b>Uchko'prik</b>	<b>158</b>	<b>183</b>	<b>115,8</b>

	Rishton	68	78	114,7
	So'x	30	51	170,0
	Toshloq	118	134	113,6
	O'zbekiston	79	81	102,5
	Farg'ona	81	103	127,2
	Dang'ara	120	128	106,7
	Furqat	68	75	110,3
	Yozyovon	70	76	108,6


**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni,  
01.04.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi, %da)**



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Farg'ona (**26,8 %**), Marg'ilon (**10,3 %**) va Qo'qon (**9,9 %**) shaharlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **90,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **166,8 %**ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **2,1 %** punktga ko'payib, **7,0 %**ni tashkil etdi.


### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Quvasoy shahrida jami qurilish ishlari hajmining **20,8 %** i yoki 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **4,9 m**, Marg'ilon shahrida jami qurilish ishlari hajmining **20,4 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **92,4 m**, va Qo'shtepa tumanida esa jami qurilish ishlari hajmining **16,1 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **10,9** martaga to'g'ri keldi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2021- yilning yanvar-mart oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **67,4 %** i to'g'ri kelib, 2020 - yilning yanvar-mart oylaridagi ko'rsatkichiga nisbatan **3,4 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020 - yilning mos davriga nisbatan **122,0 %** ni tashkil etgan holda **868,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **30,3** mlrd. so‘m yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1 259,6** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,3 %** va **97,7 %**ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **62,4 %** yoki **805,4** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **84,6** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **10,5 %**ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **422,6** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **52,5 %**ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **298,2** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **37,0 %**ni tashkil etdi.






**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
<b>Farg'ona viloyati*</b>	<b>1 289,8</b>	<b>114,1</b>	<b>805,4</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	282,1	103,1	183,8
Qo'qon	146,9	141,0	54,2
Quvasoy	37,2	45,3	30,4
Marg'ilon	196,4	241,1	161,2
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	36,4	120,7	17,0
Qo'shtepa	46,0	129,9	23,9
Bag'dod	137,5	104,5	68,5
Buvayda	65,0	165,8	12,5
Beshariq	21,8	72,0	71,0
Quva	41,1	94,7	32,7
Uchko'prik	33,5	130,1	16,4
Rishton	23,9	231,0	10,9
So'x	15,9	114,6	3,0
Toshloq	38,2	128,0	12,3
O'zbekiston	45,0	133,9	37,3
Farg'ona	17,2	83,1	6,9
Dang'ara	43,6	57,2	17,6
Furqat	27,5	65,5	26,3
Yozyovon	34,7	125,1	19,7

\* Viloyat bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



## Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




## Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **6,0 %**ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-mart oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **4,4 %** punktga ko'paygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-mart oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **6,7 %** punktga ko'payib, **62,9 %**ni tashkil etdi.


Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-mart oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **11,1 %** punktga kamayib, **31,1 %**ni tashkil etdi.



## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **12,7 %**ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-mart oyiga nisbatan **10,2 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **83,4 %** (**7,1 %** punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **3,9 %** (**3,1 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan **2,8 %** punktga kamaydi va **9,9 %**ni tashkil etdi. Qolgan **90,1 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan **2,8 %** punktga ko'paydi.

ulushi, %da



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

mlrd. so'm

Farg'ona sh.  
282,1

Marg'ilon sh.  
196,4

Qo'qon sh.  
146,9

Bag'dod t.  
137,5



**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Farg'ona sh. (282,1 mlrd. so'm), Marg'ilon sh. (196,4 mlrd. so'm), Qo'qon sh. (146,9 mlrd. so'm), Bag'dod t. (137,5 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi

Ijr : O'.Umarov  
Tel.: (73) 249-87-26  
(73)-241-98-42